

KASBGA YO‘NALTIRISHNING ILMIY-NAZARIY, PSIXOLOGIK ASOSLARI: MANBALAR VA AMALIY TAVSIYALAR

Axmadaliyeva O‘g‘iloy Jamoliddin qizi,
Namangan davlat pedagogika institute 2-bosqich magistranti
ogiloyaxmadaliyeva2@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18219762>

Annotatsiya: Ushbu maqolada filologik ta‘limda talabalarni kasbga yo‘naltirishning nazariy va pedagogik asoslari haqida fikr yuritilgan. Xalqaro tajriba va tadqiqot ishlari o‘rganilgan, qiyoslangan va tahlil qilingan. Amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: filologik ta‘lim, kasbga yo‘naltirish, nazariya, integratsiya

Abstract: This article reflects on the theoretical and pedagogical foundations of directing students to the profession in philological education. International experimental and research work has been studied, compared and analyzed. Practical recommendations are given.

Keywords: philological education, professional orientation, theory, integration

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретико-педагогические основы профориентации студентов в филологическом образовании. Был изучен, сравнен и проанализирован международный опыт и исследовательская работа. Даны практические рекомендации.

Ключевые слова: филологическое образование, профориентация, теория, интеграция

Kirish. Hozirgi rivojlangan globallashuv zamonida ta‘lim tizimi mislsiz sur‘atlar bilan o‘zgarib, takomillashib bormoqda. Raqobat kuchaygan jahon mehnat bozorida yosh avlod vakillarining to‘g‘ri kasb tanlashi, ularning hayotdagi yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu bois, kasbga yo‘naltirish masalasi nafaqat metodik yondashuv, balki strategik vazifa sifatida qaralmoqda.

Eng avvalo, “kasbga yo‘naltirish” tushunchasi ta‘rif-tavsifi va uning til ta‘limidagi ahamiyati, pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishdagi o‘rni haqida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lish lozim.

Xo‘sh “Kasbga yo‘naltirish” aslida qanday ma‘no ifodalaydi? U nega paydo bo‘ldi? Nazariy va amaliy jihatdan qanday asoslanadi? Hozirgi kungacha bu tushuncha asosida olib borilgan ishlar o‘zini oqlay oldimi?

Ushbu savollarga javob beradigan bo‘lsak, Kasbga yo‘naltirish bu yoshlarni kelajakdagi kasb tanlashga tayyorlash jarayonidir. Ya‘ni, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, iste‘dodlari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olib, ular uchun mos kasbni tanlashga yordam berish demakdir.

Oddiy so‘z bilan aytganda, kasbga yo‘naltirish — bu “Qaysi soha senga mos?”, “Qaysi kasbni tanlasang, muvaffaqiyatli bo‘lasan?” degan savollarga javob topishga yordam beradigan jarayon. Uning maqsadi:

- O‘quvchining shaxsiy qiziqishlarini aniqlash
- Uning qobiliyat va imkoniyatlarini baholash

- Mos kasb va yo‘nalishni tanlashga yo‘l ko‘rsatish
- Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash

Kasbga yo‘naltirish faoliyatining asosida esa ma‘lum bir sohada “yanglish kadrlar” chiqishining oldini olishdir. Ya‘ni hozirda yoshlarning ta‘limga qiziqishi ortib borayotgani, albatta, quvonarli hol. Lekin ularning qiziqishlari va aqliy salohiyatlari har doim ham bunga to‘g‘ri proporsional emas. Shu sababli o‘zlari qiziqqan sohadagi oliy ta‘limga qabul qilinmagan yoshlar o‘zlari istamagan holda boshqa yo‘nalishda davom etishga majbur bo‘lmoqda. Yoki kasbiy qiziqishi bo‘lmagan yoshlar ota-onalar, atrofdagilar ta‘sirida o‘zlari istamagan yo‘nalishlarda o‘qishi ham kuzatilmoqda. Bundan tashqari, oliy ta‘lim tizimida mutlaqo boshqa sohada tahsil olib, o‘z mehnat faoliyatini esa boshqa yo‘nalishda davom ettirish holatlari ham kuzatilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Kasbga yo‘naltirish nazariyasining zamini Frank Parsons tomonidan 1909-yilda yozilgan “Choosing a Vocation” nomli asarga borib taqaladi. U shaxs xususiyatlari, kasb talablari va ularning o‘zaro mosligini asosiy omillar sifatida belgilagan.

Keyinchalik, J. Holland RIASEC modelini ilgari surdi. Bu modelga ko‘ra, kasblar shaxsiy qiziqishlarga asoslangan 6 toifaga bo‘linadi:

- ✓ Realistic (haqiqatga asoslangan)
- ✓ Investigative (tadqiqotga asoslangan)
- ✓ Artistic (ijodga asoslangan)
- ✓ Social (ijtimoiy)
- ✓ Enterprising (tashabbuskor)
- ✓ Conventional(tartibli) [V. Kulko, N. Timchenko-Mikhailidi. Research of career orientations of future philologists in higher educational establishment]

D. Super esa kasbiy rivojlanishni inson hayoti davomida kechuvchi bosqich sifatida ko‘rgan. Uning “Life-span, Life-space” (Kasbiy rivojlanishning umrboqiy va ijtimoiy-muhit modelini) nazariyasi kasbiy yo‘nalishni tanlashda individual rivojlanishni inobatga olish lozimligini ta‘kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qiyosiy-pedagogik tahlil: Koreys olimlari Jeong va Lee (2017) tadqiqotida bu dastur o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani qayd etilgan [Jung, Jaeun va Lee, Sang-Jin .Impact of internship on job performance among university graduates in South Korea. – International Journal of Chinese Education, 5(2), 250–284].

V. A. Sharapova va boshqalar tomonidan 2023-yilda olib borilgan meta-tahlil natijalariga ko‘ra, MDH davlatlaridagi 1433 nafar o‘quvchi ishtirokidagi proforientatsiya intervensiyalari o‘rtacha-yuqori darajadagi ta‘sir ko‘rsatgan[V. A. Sharapova Efficacy of school-based career guidance interventions: A review of recent research. – Journal of Education and e-Learning Research, 2023-y. 10(2), 215–222].

Statistik tahlil: Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 2021-yilgi hisobotiga ko‘ra, rivojlangan davlatlarda samarali kasbga yo‘naltirish tizimi yoshlarda bandlik va o‘zini anglash ko‘rsatkichlarini oshiradi. Masalan, Janubiy Koreyada 2013-yilda joriy etilgan “Free Semester” dasturi o‘quvchilarni o‘z qiziqishlariga mos yo‘nalish topishda qo‘llab-quvvatlaydi. Dunyoning eng muvaffaqiyatli ta‘lim tizimlarini o‘rganish va ularning tajribasini iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘lash va turli davlatlardagi o‘quvchilarning natijalarini, kasbga yo‘naltirish tizimlarini va o‘qituvchilarning malakasini oshirish metodlarini qiyosiy tahlil qiluvchi tashkilot –NCEE (2022) tahliliga ko‘ra, dastur natijasida 29% o‘quvchi o‘z kasbiy yo‘nalishini aniqlay boshlagan.

Normativ-huquqiy tahlil: O‘zbekistonda bu boradagi yondashuv so‘nggi yillarda sezilarli darajada takomillashmoqda. Masalan, 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni va 2021-yil 28-yanvardagi PQ-4947-sonli qaror asosida 2021–2030-yillarni qamrab oluvchi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tasdiqlandi. Ushbu dastur kasbga yo‘naltirishga ustuvor e‘tibor qaratilishini ko‘zda tutadi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi:

Xalqaro tajriba: Janubiy Koreyada joriy etilgan “Free Semester” dasturi natijasida 29% o‘quvchi o‘z kasbiy yo‘nalishini aniqlay boshlagan.

Nazariy modellar: J. Hollandning RIASEC modeliga ko‘ra, kasblar shaxsiy qiziqishlarga ko‘ra 6 toifaga bo‘linishi (Realistic, Investigative, Artistic, Social, Enterprising, Conventional) aniqlandi.

Mahalliy holat: O‘zbekistonda 2021–2030-yillarni qamrab oluvchi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida kasbga yo‘naltirish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Bu ishlar, asosan, talabalarda amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish bitiruvchilarning ijtimoiy va kasbiy taraflama o‘z yo‘lini topishiga yordam berish maqsadida amalga oshiriladi. Oliy ta‘limni tamomlagan talabalar ish faoliyatini boshlaganda ish joyiga, jamoaga va o‘quvchilarga nisbatan yaqin yondashuvni his qilishi uchun kasbga yo‘naltirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Ayniqsa, oxiri yillarda yangi bitiruvchilarda ishga qabul qilingach faqat nazariy bilimlar bilangina cheklanib qolmay, amaliy dars ko‘nikmalarini o‘rganuvchilarga oson yetkaza olishi uchun ham oliy ta‘lim dars jarayonlari, pedagogik amaliyotni bajarish tizimlariga o‘zgartirishlar kiritilib takomillashtirildi.

Pedagogik amaliyot: Filologik ta‘limda talabalarining auditoriyani jalb qila olish mahorati va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun dars jarayonlariga o‘zgartirishlar kiritilgani samarali natija bermoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yurtimizda ham shaxs individini o'rganish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, Z. Nishanova, Z. Qurbanova, S. Abdiyevlarning "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya" darsligi bunga misol bo'ladi.

Umumiy olib aytganda, yurtimiz va dunyo psixolog-pedagog olimlari yoshlarni kasbga yo'naltirishda uning psixologik qobiliyatlarini, shaxsiy xususiyatlarini yaxshi tadqiq qilish lozim deb hisoblashadi.

Quyida psixodiagnostikaning kasbga yo'naltirish faoliyatiga ta'siri haqida fikr yuritsak, yuqorida aytib o'tilganidek, kasbga yo'naltirish — shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari, shaxsiyati va kasbiy maqsadlari asosida mos kasb yoki ta'lim yo'nalishini aniqlash jarayonidir. Bugungi kunda bu jarayon psixodiagnostika vositalari bilan chambarchas bog'langan. Psixodiagnostika — insonning intellektual, emotsional, ijtimoiy va ish faoliyati bilan bog'liq xususiyatlarini o'lchash, baholash va talqin qilishga yo'naltirilgan usullar majmuasidir. Kasbga yo'naltirish va psixodiagnostika o'rtasidagi integratsiya yoshlarning aniq va samarali kasbiy tanlov qilishi uchun zarurdir.

Psixodiagnostikaning asosiy maqsadi shaxsning kasbiy jihatdan muvofiqligini aniqlashdir. Bunda testlar, intervyular, kuzatuvlar, situatsion vaziyat tahlillari va boshqa baholash vositalari qo'llaniladi. Vazifalar qatoriga individual qobiliyatlarni aniqlash, shaxsiy motivatsiya va qadriyatlarni baholash, ish uslubi va ish sharoitiga moslikni aniqlash kiradi. Bu ma'lumotlar kasbga yo'naltirish mutaxassislari — pedagog-psixologlar, kasbiy maslahatchilar va oila a'zolari uchun qaror qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarni kasbga yo'naltirish jarayonini takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Kasbga yo'naltirish dasturlarini amaliy va interaktiv metodlar (mentorlik, simulyatsiya) bilan boyitish;
2. Har bir o'quvchi uchun individual kasbiy yo'nalish xaritasi va diagnostika vositalarini ishlab chiqish;
3. Ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash hamda ota-onalar va tadbirkorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Parsons, F. (1909). *Choosing a Vocation*. Boston: Houghton Mifflin Company.
2. Holland, J. L. (1997). *Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments* (3rd ed.). Psychological Assessment Resources.
3. Super, D. E. (1990). *A life-span, life-space approach to career development*. In D. Brown & L. Brooks (Eds.), *Career Choice and Development* (2nd ed., pp. 197–261). Jossey-Bass.
4. OECD. (2021). *Career Guidance for Adults in a Changing World of Work*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9a94bfad-en>
5. Jeong, S., & Lee, H. (2017). *The effects of Free Semester Program on Korean middle school students' career maturity*. *Asia Pacific Education Review*, 18(4), 543–556. <https://doi.org/10.1007/s12564-017-9507-z>

6. NCEE. (2022). *South Korea's Education System and Policy*. National Center on Education and the Economy. <https://ncee.org/what-we-do/center-on-international-education-benchmarking/top-performing-countries/south-korea-overview>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *PF-6108-son Farmon – Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi*. Lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). *PQ-4947-son Qaror – 2021–2030 yillarda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*. Lex.uz.
9. Xalq Ta'limi Vazirligi. (2023). *Maktablarda kasbga yo'naltirish faoliyati monitoringi hisobotlari*. Toshkent: XTV Axborot markazi.
10. Sobirova, M. (2024). *QADRIYAT–INSONNI RAG‘BATLANTIRUVCHI KUCH. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал*, 2(10).
11. Sobirova, M.Y. (2023). *The role of educational tools in anthropocentric relationship education*. *European Journal of Education and Applied Psychology* 2023, No 4. <https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-4-52-58>
12. Sobirova, M. (2023). *Обучение языковым явлениям на основе анализа текста. "Этнокультурный и социолингвистический аспекты в теории и практике преподавания языков в негуманитарных вузах" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Минск, 30 март 2023 й., – В. 299-302.* <https://rep.bntu.by/handle/data/130394>
13. Sobirova, M. (2022). *Anthropocentric approach to language*. *ISJ Theoretical&Applied Science*,07(111), <http://t-science.org/axivDOI/2022/07-111.html> – P.36-39.
14. Sobirova, M. (2022). *In imparting humane education use of integrated technology*. In Volume 8, Issue 1, of *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P.151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
15. Sobirova, M. (2022). *Teaching language phenomena on the basis of anthropocentric approach*. *International bulletin of applied science and technology*. <https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=5377> *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)* DOI:10.9756 /INTJECSE/V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.
16. Yusupdjanovna, S. M., & Yakubjanovna, S.D. (2021). *Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques*. **Design Engineering**. *International Research Journal of Advanced Engineering and Science (IRJAES)* СКОПУС 5288-5295 <http://thedesigengineering.com/index.php/DE/issue/view/31>.